

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.04.2021.F.76.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

XOLMATOV G‘AYRATJON MUXTORALIYEVICH

**JAMIYATNING YANGI TARAQQIYOT BOSQICHIDA
JADIDCHILAR TA‘LIMOTI (IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL)**

09.00.04. – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
философским наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
Philosophical Sciences**

Xolmatov Gayratjon Muxtoraliyevich

Jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichida jadidchilar ta'limoti (ijtimoiy-falsafiy tahlil)..... 3

Холматов Гайратжон Мухторалиевич

Учение джадидов на новом этапе развития общества (социально-философский анализ) 21

Kholmatov Gayratjon Mukhtoralievich

Doctrine of jadidists at the new stage of society's development (socio-philosophical analysis)..... 41

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of works published 45

**NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.04.2021.F.76.06 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

XOLMATOV G‘AYRATJON MUXTORALIYEVICH

**JAMIYATNING YANGI TARAQQIYOT BOSQICHIDA
JADIDCHILAR TA‘LIMOTI (IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL)**

09.00.04. – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Fal639 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Namangan muhandislik-texnologiya institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Namangan davlat universiteti veb-sahifasi (www.namdu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Otamuratov Sa'dulla Otamuratovich
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Mamatov Mamadjan Axmadjanovich
falsafa fanlari doktori, professor

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Dissertatsiya himoyasi Namangan davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.04.2021.F.76.06 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "10" yanvar soat 9⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160107, Namangan shahri, Boburshoh ko'chasi, 161-uy. Tel.: (+99869) 227-06-12; Tel.: (+99869) 228-85-01, Faks: (+99869) 228-85-02. Web-sayt: www.namdu.uz, e-mail: info@namdu.uz, faks: (+99869) 227-07-61; e-mail: info@namdu.uz).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. 1697 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 160107, Namangan shahri, Boburshoh ko'chasi, 161-uy, Tel: (+99869) 228-85-01).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "26" dekabr kuni tarqatildi.
2024-yil "26" dekabr dagi 22 raqamli reyestr bayonnomasi.



R.T. Jo'rayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash rasi, siyosiy fanlar doktori (DSc), professor

Q.O. Maxkamov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

M.I. Ismoilov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar rasi, falsafa fanlar doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda xalqlar va millatlar o'zlarining asrlar davomida yashab kelayotgan tarixiy-madaniy meros, alloma va mutafakkirlarining bashariyat sivilizatsiyasi taraqqiyotiga qo'shgan hissasini o'rganish, tarixiy-madaniy, an'anaviy qadriyatlarni asrab-avaylash, ajdodlar merosidan oqilona foydalanish orqali jamiyatda milliy tarixiy tafakkurni mustahkamlash, milliy o'zlikni identifikatsiyalovchi eufunksiya va disfunksiya omillarining makon va zamondagi o'rnini belgilab beruvchi innovatsion indikatorlarini takomillashtirish talab etilmoqda. Jahon falsafiy dunyoqarash paradigmasi asosida turli geosiyosiy kuchlarning o'tmishni soxtalashtirishga bo'lgan urinishlari hisobiga shu paytgacha amal qilib kelgan qoidalar, an'analar hamda ularning g'oyaviy asosi bo'lgan ajdodlar ta'limoti va merosni qo'rib chiqish va qayta baholash dolzarbligini oshirish bilan bir qatorda, globallashuv sharoitida davlat va jamiyat madaniy hayotining ma'naviy ehtiyojlarni qondirishga yo'naltirilgan islohotlari, ajdodlar qoldirgan ilmiy-amaliy merosdan amaliy foydalanish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda.

Dunyoda ma'naviyat va ma'rifat, ta'lim va tarbiya, milliy-tarixiy merosning ilmiy-amaliy jihatlarini yosh avlodga yetkazish, milliy tarixiy tafakkurni mustahkamlashning ijtimoiy-madaniy omillarini rivojlantirish, milliy merosni yaxlit saqlash bo'yicha sa'y-harakatlarning qiymatini oshirishga doir ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Tokio va Anqara universitetlarida¹ jadid allomalarining jadidchilik falsafasi va mafkurasi, uning tarixiy va siyosiy masalalariga, jadidlar davrida yangi maktablar ochilishi, gazeta-jurnallar chop etilishi bilan bog'liq mavzular hamda xotin-qizlar ozodligiga munosabati, saylov huquqi, millat va Vatan taqdiri, mustaqillik g'oyasi, axloq va ta'lim-tarbiya, aholini savodli qilishda teatr va matbuotning o'rnini haqidagi fikrlari, til va tarixni asrash ma'rifat va taraqqiyot uchun qo'shgan hissalarini yoritib berish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda so'ngi yillarda jadidchilik harakatining milliy madaniy taraqqiyotga ta'sirini madaniy va ilmiy merosini tadqiq etishning me'yoriy asoslarini takomillashtirilishi globallashayotgan zamonda davr nuqtayi nazaridan dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jadid allomalarining "Najot – ta'limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda. Chunki barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi"² degan qarashlari zahirida ta'lim va tarbiyaning muhimligi ta'kidlanadi. Natijada ularning ilmiy merosi ta'lim sifatini ta'minlashga, jamiyatda o'qituvchilik kasbi nufuzini oshirishning ijtimoiy – siyosiy va ma'rifiy ahamiyatini kengaytiradi.

Mazkur tadqiqot ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrda PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2018-yil 12-maydagi PQ-3721-son "Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy

¹ Yangi O'zbekiston. Ijtimoiy-siyosiy gazeta. № 11 (1072), 2024-yil 16-yanvar.

² Мирзиёев Ш.М. Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси // Янги Ўзбекистон. 2022.–21 декабрь.

merosini keng o'rganish va yoshlar o'rtasida targ'ib qilish maqsadida kitobxonlik tanlovlarining tashkili to'g'risida", 2020-yil 8-oktyabrdagi F-5598-son "Qatag'on qurbonlari va ular xotirasini abadiylashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoyishlari, 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-sentyabrdagi 698-son "To'raqo'rg'on tumanida Is'hoqxon to'ra Ibrat nomidagi xorijiy tillarga ixtisoslashtirilgan maktab internatni tashkil etish to'g'risida"gi qarori hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Eng avvalo, jamiyat hayotida ta'lim va tarbiyaning ijtimoiy taraqqiyot omili ekanligi sifatidagi davlat siyosatining asoslari, O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev³larning asarlari ilmiy tadqiqot ishiga ilmiy-uslubiy asos qilib olindi.

Jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, ta'limiy-tarbiyaviy hamda ma'rifatiga doir g'oyalar antik Yunon-Rim falsafasida, qadimgi Xitoy-Hind falsafiy qarashlarida, Markaziy Osiyo falsafiy tafakkurida azaldan yashab kelgan ustuvor masalalar hisoblangan. Zamonaviy xorijiy ilmiy tadqiqotlarda ma'rifatparvarlik, xususan, jadidchilik ta'limotiga oid ilmiy ishlar amalga oshirilgan⁴. Xorijiy adabiyotlarda o'lkamizning ma'rifatparvarligi orientalizm kontekstida tadqiq etilgan.

O'tgan asrning birinchi yarmida bir qator monografiya, ilmiy to'plam va maqolalarda tadqiqot mavzusiga oid Turkiston jadidchilik ma'rifatining ijtimoiy manba va arxiv ma'lumotlari e'lon qilingan. Biz ularni mavzuga mos holda shartli besh qismga guruhlashtirdik:

1. Turkiston o'lkasidagi allomalarning ma'rifatparvarlik hamda jadid ma'rifiy-ma'naviy merosining ilmiy-tarixiy jihat va xususiyatlariga oid adabiyotlar yozilgan⁵;

³ Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд.– Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – 592 б; Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2018. – 508 б; Нияти улўғ халқнинг иши ҳам улўғ, хаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – 400 б; Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. 4-жилд. – Тошкент. Ўзбекистон, 2020. – 456 б.

⁴ Аллворт Эдвард А. Allworth E. Supressed histories of the jadids in Turkestan and Bukhara. –Turkestan and historians Faktor politische idee Koln. 1987; Холид А. Идея прогресса в философской мысли джадидов новое направление во взгляде на мир // Жадидчилик, мухториятчилик, истиқлолчилик. Халқаро конф. Мат-лари.– Тошкент: Маънавият, 2001. – С. 28-32; Khalid A. A secular Islam: Nation, state and religion, in Uzbekistan // int. J. Middle East Study. 35. USA. 2003. – 600 p; Халид А. Туркестан в 1917–1922 годах: борьба за власть на окраине России // Трагедия великой державы: национальный вопрос и распад Советского Союза. –Москва: Наука, 2005. - С.189-226; Haugen A. The Establishment of National Republics in Soviet Central Asia. – London: 2003; Акçураoғлу Y. Türkçülük // Türk Yılı. Ankara, 1928. - С.288–459; Andiken F. Turkestan Struggle Abroad Jadidism. Haarlem: Info-Sota 2007.

⁵ Авазов Н. Туркестон ва Бехбудий // Гулистон. №5. 2005. -Б.18-19; Бозоров М. Туркестон жадидларининг диний ва дунёвий гоёлари // Фалсафа ва ҳуқуқ. №1. 2005. -Б. 41-42; Худайкулов А. М. Просветительская деятельность джадаистов Туркестана (конец XIX- начало XX в.). Диссертации автореферат кандидата

2. Jadidchilik harakatida taraqqiyparvarlikning falsafiy jihatlari G.Galuzo, E.Mavloniy, Sh.Inoyatov, M.Vahobovlar tadqiqotlarida amalga oshirilgan⁶;

3. O‘zbekistonda milliy mustaqillik, ozodlik g‘oyalari ziyolilarining ijtimoiy-siyosiy kurashlari hamda milliy davlatchilik yondashuv⁷larida Turkiston jadidchilik vakillarining siyosiy davlatchilik pozitsiyasi salbiy baholangan, ularga “millatchi”, “reaksion unsurlar” kabi tamg‘alar bosilgan, natijada, jadidlar Turkiston Muxtoriyatining tashkilida rus inqilobchilarining hamkori – “xalq dushmanlari” sifatida qoralangan;

4. Jadidchilik ta’lim merosiga oid manbalar: “Sadoyi Farg‘ona”, “Kengash”, “Yurt”, “Hurriyat”, “El bayrog‘i”, “Ravnaq ul-islom”, “Tirik so‘z”, “Turkestanский kray” (Qo‘qon), “Turkestanское slovo”, “Turkestanский golos” (Andijon) kabi Farg‘ona vodiysida chop etilgan gazeta va jurnal maqolalari mavzu uchun alohida ilmiy qimmatga egadir. Zikr etilgan manbalarda Turkiston o‘lkasi jadidchilik harakatida millatning milliy nufuzi ilm-fan, zamonaviy texnika va texnologiyalarga bog‘liq ekanligining ijtimoiy ahamiyati ochib berilgan.

Jadidlarni ilmiy meros, ulardagi ahloqiy-estetik va ekologik qarashlar, N.Avazov, G.T.Maxmudova, A.G‘ulomov⁸lar tadqiqotlarida, jadid ma’rifatparlarining pedagogik faoliyatlari hamda xotin-qizlar masalalariga doir qarashlarining ijtimoiy-falsafiy jihatlari Z.Axrорова, D.N.Rajabova, D.T.Amriddinova, U.Dolimov⁹ kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida ko‘rinsa, jadidchilikning ijtimoiy-siyosiy g‘oyalari va hozirgi zamon bilan bog‘liq tomonlari D.T.Amriddinova, S.A.Abdivohidov, I.T.Ibragimov, A.A.Qambarov va M.M.Qaxxarova¹⁰ va boshqa tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan.

исторических наук. Ташкент. 1995; Солиқ С. Туркистонда жадид мактаблари // Жаҳон адабиёти. -2008. -№1. -Б. 137-141; Умаров М. Жадидчилик фалсафаси: миллий тафаккур эволюцияси // Фалсафа ва ҳуқуқ. №3. 2005. -Б. 60-64; Чўлпон. Туркистонда матбуот // Жамият ва бошқарув. №2. 1998. -Б. 40-45; Қалдибекова А. XIX асрнинг иккинчи ярми XX аср бошларида Туркистонда таълим тизими: жадид мактаблари янги талқин // Узлуксиз таълим. -2003. -№ 6.-Б. -32-39.

⁶ Галузо Г. Туркестан-колония. (Очерки истории колониальной политики русского царизма в Средний Азии). - Тошкент: Госиздат, 1935.-С. 196- 198; Мавлоний Э. Туркистонда 1905- 1907 йиллардаги революция. - Тошкент: Ўздавнашр, 1955. - Б. 25; Иноят Х.Ш. Октябрьская революция в Узбекистане.–Москва: Госиздат, 1958.-С. 32-35; Вахобов М. Ўзбек социалистик миллати.-Тошкент: Госиздат, 1960. -Б. 119- 124.

⁷ Алексеев П.А. Кўкон Автономияси. -Тошкент:Ўздавнашр, 1931. -Б.75-78; Додонов И.К. Очерки истории коммунистической партии Туркестана социал-демократические организации Туркестана в до октябрьский период (1903 – 1917 гг.). Ташкент: Госиздат, 1958. – С. 93-95; Инъомов Р. Ўзбек зиёлилари.-Ташкент: Ўздавнашр, 1926. - 39 б.; Баратов М. Ўзбекистонда маърифат учун кураш тарихидан. Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1961. - 95 б.

⁸ Авазов Н. Махмудхўжа Бехбудийнинг ижодий мероси. Филол. фан. номз. дисс... – Тошкент, 1995.; Махмудова Г.Т. Туркистонда жадидчилик ҳаракати ва унинг ахлоқий-эстетик фикр тараққиётига таъсири. Фалсафа фан. номз. дисс... – Тошкент, 1996.; Гуломов А. Бухоро жадидларининг экологик қарашлари:тарихий-фалсафий таҳлил Фалс.докт. дис. – Бухоро: БухДУ, 2021, – 122 б.

⁹ Ахророва З. Махмудхўжа Бехбудийнинг педагогик қарашлари ва маърифий-амалий фаолияти. Пед. фан. номз. дисс... – Тошкент, 1997.; Ражабова Д.Н. Туркистон жадидларининг қарашларида ёшлар ва хотин-қизлар масалалари (XIX аср охири – XX аср бошлари). Тарих фан. номз. дисс... – Тошкент, 2003.; Амридинова Д. Т. “Жадидчилик таълимотида комил инсон концепциясининг фалсафий-ижтимоий моҳияти”. фалсафа фанлари доктори (DSc) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Самарқанд, 2021; Долимов У. Жадид мактаблари: уларда она тили ва адабиёт ўқитишнинг илмий-назарий ҳамда амалий асослари. Пед. фан. док. дисс. автореф. – Тошкент, 2008.

¹⁰ Амридинова Дилрабо Турсуновна. Самарқанд жадидчилик мактаби. Монография. – Тошкент: “Наврўз”, 2017. 124 б.; Абдивоҳидов С.А. Жадидчилик ҳаракатининг ижтимоий – сиёсий жиҳатлари ва ҳозирги замон. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Самарқанд 2020.; Ibragimov И.Т. Turkiston jadidlari ilmiy-ma’naviy merosining xorij olimlari tomonidan o‘rganilishi (fransiya, aqsh va turkiya olimlari misolida). Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Тошкент, 2024.

Yuqoridagi tadqiqotlardan ko‘rinadiki jadidchilik ta‘limotlari, asosan, tarixchi va adabiyotshunos olimlar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, adabiyotlar tahlili Farg‘ona vodiysida jadid harakatining ta‘lim va tarbiyaga oid ma‘rifiy ta‘lim haqidagi merosi ijtimoiy falsafa kontekstda kam tadqiq etilgan. Shu boisdan, mavzuni ijtimoiy falsafa doirasida belgilash va o‘rganishga asos bo‘ladi.

Dissertatsiya mavzusining Dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Namangan muhandislik-texnologiya instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 02-05/45-son “Talaba yoshlarning sog‘lom turmush tarzi (2020-2024 y.y.)” mavzusidagi loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichida jadidchilar ta‘limotining ijtimoiy-falsafiy jihatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

jadidlarning jamiyatning ijtimoiy-madaniy taraqqiyotini belgilash va ijtimoiy davlat barpo etishga doir ijtimoiy-siyosiy qarashlari orqali davlatning ijtimoiy boshqaruv shaklining kognitiv imkoniyatlarini aniqlash;

“jadid harakati” “jadid ma‘rifati”, “ta‘lim islohoti” kabi konseptual yondashuvlar jamiyatda yoshlar madaniy pozitsiyasini rivojlantiruvchi (aksiologik sodiqlik, madaniy immunitet, milliy ta‘lim-tarbiya kabi) mexanizmlari ekanligini asoslash;

jadid namoyandalarining yoshlarda aksiologik munosabatni shakllantiruvchi gnoseologik, ijtimoiy, an‘anaviylik g‘oyalari Is‘hoqxon to‘ra Ibrat ijodi misolida tahlil qilish;

jadidchilik harakati va jadidchilarning ijtimoiy ta‘lim renessansini amalga oshirishda “najot-ilmda, taraqqiyot-bilimda” kabi ta‘lim paradigmalarining jamiyat ijtimoiy axloqini yuksaltirishdagi ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning obyektini sifatida jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichida jadidchilik ta‘limotining ijtimoiy-falsafiy jihatlarini olingan.

Tadqiqotning predmetini jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichida jadidlarning ta‘lim va tarbiyaga doir ijtimoiy-falsafiy qarashlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tarixiylik, mantiqiylik, tizimli yondashuv, dialektik, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, sintez va mantiqiy xulosa, obyektivlik kabi tadqiqot usullari qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

jadidchilik harakatining demokratik jamiyat barpo etishga doir ma‘rifiy-siyosiy qarashlaridagi ijtimoiy tenglik g‘oyalari Yangi O‘zbekistonning “ijtimoiy davlat” tamoyillariga mos ravishda jamiyatda ijtimoiy birdamlikni ta‘minlashdagi ahamiyati proporsional munosabatlar atributi ekanligi falsafiy asoslangan;

jadidlarning milliy ta‘lim-tarbiyani rivojlantirishga doir qarashlaridagi “najot-ilmda, taraqqiyot-bilimda” kabi ta‘lim paradigmalarini bevosita ma‘rifiy rivojlanishini belgilovchi substrat sifatida jamiyat ijtimoiy-ma‘rifiy muhitiga ijobiy ta‘siri ochib berilgan;

jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichida xorijiy tillarni o‘rgatishni ommalashtirishga doir islohotlar, jadidlarning tilga doir “bir til emas, to‘rt til kerak” konsepsiyasini ta‘minlashga qaratilgan jamiyatni jahon andozalari darajasiga olib chiqishning dialektik zaruriyati aniqlashtirilgan;

jadid namoyandalarning ta'lim merosidagi an'anaviylik va "yangi usul"ning ma'rifiylik xususiyatlari, yoshlar kamolotida ta'lim va san'at madaniy rivojlanishning maqbul yo'li sifatida jamiyatda yoshlar madaniy pozitsiyasini rivojlantiruvchi (aksiologik tarbiya, ma'naviy meros, milliy o'ziga xoslik, milliy ta'lim) omillari jamiyatning diskretik taraqqiyotiga bevosita ta'siri falsafiy asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

Turkiston jadidlarining ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy merosining jamiyat ijtimoiy hayotida shaxs, jamiyat va davlat munosabatlarini yanada takomillashtirish, inson qadri, shaxs manfaatlarini ta'minlashdagi roli asoslangan;

jamiyatning ijtimoiy barqarorligi, davlatning xavfsizligida ta'lim va tarbiyaning ijtimoiy qimmati jadid ma'rifatining ta'lim va tarbiyaga oid qarashlari asosida ochib berilgan;

jamiyatda jadidchilik harakati ta'lim merosining keng qamrovli islohotlar, tashabbuslar, milliy-madaniy yuksalishni belgilovchi ijtimoiy omillari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallari to'plamlari, OAK ro'yxatidagi xorijiy va mahalliy jurnallarda chop etilgan maqolalar, xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ilgari surilgan fikrlar yurtimiz ijtimoiy-madaniy taraqqiyotida jadidchilik merosining milliy demokratik davlatchilikni yuksaltirish, inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, kishilarda ta'lim ma'rifatini rivojlantirishda ko'rinadi;

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, jadidchilik harakatining ijtimoiy-siyosiy ahamiyatini ochib berish va ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlarni amalga oshirishda tayanch manba bo'lishi mumkin. Undan oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimining barcha kesimlarida ijtimoiy-gumanitar fanlarning ma'ruza va amaliy mashg'ulotlari, mavjud darslik, o'quv qo'llanmalarni shakllantirishda, tarixiy merosimizni o'rganish va targ'ib etishda, milliy g'oya va mafkurani takomillashtirishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichida jadidlar ta'limotining ijtimoiy falsafiy tahlillari asosida ishlab chiqilgan takliflar asosida:

jadidchilik harakatining demokratik jamiyat barpo etishga doir ma'rifiy-siyosiy qarashlaridagi ijtimoiy tenglik g'oyalari Yangi O'zbekistonning "ijtimoiy davlat" tamoyillariga mos ravishda rivojlantirishga doir xulosa va tavsiyalaridan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023-yil uchun chora-tadbirlar dasturining III yo'nalishida belgilangan "G'oya va mafkura masalasi hamda ilm-fan va ma'rifat targ'iboti" 14-bandi "Ijtimoiy-ma'naviy va mafkuraviy jarayonlarni tadqiq qilish texnologiyalari bo'yicha xorij tajribasini o'rganish"da foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi ijtimoiy tadqiqotlar institutining 2023-yil 12-maydagi 179-son dalolatnomasi). Natijada, jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichida jadidchilar ta'limoti O'zbekiston milliy taraqqiyot strategiyasi bilan integratsiyalashuvini qiyosiy tahlil etish va jamiyatda ijtimoiy birdamlikni ta'minlashning falsafiy jihatlarini ochib berishga xizmat qilgan;

jadidlarning milliy ta'lim-tarbiyani rivojlantirishga doir qarashlaridagi "najot-ilmida, taraqqiyot-bilimda" kabi ta'lim paradigmalarni aniqlashga doir taklif va tavsiyalaridan Respublika Oila va xotin-qizlar ilmiy tadqiqot institutining targ'ibot ishlarida foydalanilgan (Respublika Oila va xotin-qizlar ilmiy tadqiqot institutining 2023-yil 5-maydagi 01-09/1335-son dalolatnomasi). Natijada, jadidlarning "ijtimoiy davlat" tamoyillaridagi ijtimoiy tenglik, madaniy taraqqiyot, ijtimoiy kapital kategoriyalariga doir bevosita ma'rifiy rivojlanishini belgilovchi substrat sifatida jamiyat ijtimoiy-ma'rifiy muhitiga ijobiy ta'sirini ochib berishga xizmat qilgan;

jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichida xorijiy tillarni o'rgatishni ommalashtirishga doir islohotlar, jadidlarning tilga doir "bir til emas, to'rt til kerak" konsepsiyasini amalga oshirishga oid xulosa va tavsiyalaridan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston teleradiokanalining 2023-yil mart va may oylaridagi "Ta'lim va taraqqiyot", "Millat va ma'naviyat", "Adabiy jarayon" dasturlarini samarali tashkil etishda, ularning dastur va ssenariylarini tayyorlashda foydalanildi. (O'zbekiston Milliy Teleradiokompaniyasining 2023-yil 8-maydagi O'zTV-23-32-son dalolatnomasi). Natijada, jamiyatni jahon andozalari darajasiga olib chiqishning dialektik zaruriyati aniqlashtirishga O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "O'zbekiston" teleradiokanalining 2023-yil mart va may oylaridagi "Ta'lim va taraqqiyot", "Millat va ma'naviyat", "Adabiy jarayon" dasturlarini samarali tashkil etish va ularning dastur va ssenariylarini tayyorlashga xizmat qilgan.

jadid namoyandalarining ta'lim merosidagi an'anaviylik va "yangi usul"ning ma'rifiylik xususiyatlari, yoshlar kamolotida ta'lim va san'at madaniy rivojlanishning maqbul yo'li ekanligiga doir xulosa va tavsiyalaridan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023-yil uchun chora-tadbirlar dasturining III yo'nalishida belgilangan "G'oya va mafkura masalasi hamda ilm-fan va ma'rifat targ'iboti" 14-bandi "Ijtimoiy-ma'naviy va mafkuraviy jarayonlarni tadqiq qilish texnologiyalari bo'yicha xorij tajribasini o'rganish"da foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi ijtimoiy tadqiqotlar institutining 2023-yil 12-maydagi 179-son dalolatnomasi). Natijada, jamiyatda yoshlar madaniy pozitsiyasini rivojlantiruvchi (aksiologik tarbiya, ma'naviy meros, milliy o'ziga xoslik, milliy ta'lim) omillarning jamiyatning diskretik taraqqiyotiga bevosita ta'sirini falsafiy asoslashga hamda yangi taraqqiyot bosqichida jadidchilar ta'limoti O'zbekiston milliy taraqqiyot strategiyasi bilan integratsiyalashuvini qiyosiy tahlil qilishga xizmat qilgan,

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy jurnal, ilmiy-amaliy konferensiyalarida ma'ruza ko'rinishida muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan. Shundan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola (3 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallar) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, olti paragraf, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, asosiy matn 121 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o'rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, obyekti, predmeti, metodlari, maqsadi va vazifalari aniqlangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilingani, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Jamiyat yangi taraqqiyot bosqichida jadidchilik ta'limotining nazariy – metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida O'zbekistonda jadidchilik harakatiga ijtimoiy-falsafiy yondashuvning yangilanishi va Farg'ona vodiysi jadidchilik ma'rifati ijtimoiy-ma'naviy omillarining falsafiy tahlili amalga oshirilgan. Ma'lumki, O'zbekistonda ijtimoiy yangilanishlar milliy-madaniy jadidlik ma'rifatiga munosabatni jiddiy o'zgartirdi. Shu bois O'zbekiston Prezidenti tomonidan jadid ma'rifatparvarlarining nomini abadiylashtirish, ijtimoiy-madaniy merosining ijodiy tadqiqiga oid takliflari bo'yicha murojaatlar qilindi. O'zbekiston hukumati “birinchi navbatda, e'tiborni yangi O'zbekiston uchun eng katta investitsiya bo'lgan ta'limni qo'llab-quvvatlashga...” qaratilishini belgiladi¹¹. Yosh avlodning ta'lim va tarbiyasida milliy an'ana va qadriyatga tayanish, ayniqsa, jadid ma'rifatparvarlik merosi asosida ta'lim sifati va inson qadrini yuksaltirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, jadidchilik harakatining ijtimoiy davlat barpo etishga doir ijtimoiy-siyosiy qarashlari jamiyatda diniylik va dunyoviylikning hamkor tolerantligini ta'minlashga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Bu esa davlat ijtimoiy boshqaruv shakli kognitiv imkoniyatlarining reflektiv rivojlanishini ta'minlab, ijtimoiy munosabatlarda proporsionallikni belgilab beradi.

Jadidchilik ma'rifatining markaziy muammosi sifatida xalqning milliy savodxonligi ila rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish g'oyasi olg'a surilgan, “yangi usul maktablari” jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy taraqqiyot innovatsiyasi bo'lib qolgan edi. Chunki, jamiyatning an'anaviy maktablarga novatsion yondashuvida, dunyoviy bilimlar asosida zamonaviy tamaddunga hamqadam bo'lishida najot ta'lim va tarbiya tufayli ekanligini tushungan ziyolilar edi. Ishda muhim jihat ijtimoiy qadriyatlarni ijodiy jihatdan milliy hayotga uzviy bog'lash, olamni bilish asosida tafakkur, faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish uchun islom dini va dunyoviylikning dualizmini olg'a surdilar. Ular davlat bilan din, din bilan ilm-fan orasidan “devorni olish”, shaxs ijtimoiy hayotida din va fan munosabatlarining ijtimoiy sherikligida ta'lim konsepsiyasini asoslab berdilar.

XIX asr oxirida vujudga kelgan ijtimoiy-siyosiy vaziyatda maktab-maorif, milliy-ma'rifiy matbuot, badiiy adabiyot, san'at asarlarining yuksak nafosatli namunalari bilan ijtimoiy turmush tarzini innovatsion islohiga hissa qo'shgan allomalar shakllandi. Ularning Chorizm va sovet tuzumi tomonidan ta'qib etilgani, qatag'oni ham jamiyatning milliy ma'rifatga bo'lgan ehtiyojini ifodalagan. Jadid ma'rifatparvarlarining jamiyat taraqqiyotiga qo'shgan hissasi va qatag'on azoblari tufayli milliy qahramonlik darajasida baholanishi haqidagi fikrlar qo'llab-

¹¹ Мирзиёев Ш.М. Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси// Янги Ўзбекистон, 2022. –21 декабрь

quvvatlangan¹². Sharq ma'rifatparvarligi islomning ilm-fan, ma'rifat g'oyalarini ozodlik, milliy istiqloqlga uyg'unlashtirdi. Natijada, Ismoil Gaspirali Beyning yangi usul maktablarining rivoji Buxoroda Jo'raboy, Samarqandda A. Shakuriy, S. Aziziy, A. Munzim, Mulla Qilich, Toshkentda Munavvar qori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Qo'qonda Hamza, Salohiddin domla, Andijonda Shamsuddin domla¹³, Namanganda Ibrat, So'fizoda kabilarning jadid maktablari faoliyatiga ijobiy ta'siri ko'rsatgan¹⁴.

Tadqiqotimizda Chor Rossiyasining mustamlakalari bo'lmish Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklarining tobeligi, xususan, Qo'qon xonligida milliy-ozodlik harakati, ziyolilarning mustaqillik g'oyalari, mustamlaka boshqaruv tizimining jamiyat hayotiga tahdidi ochib berilgan. Jamiyatning mustamlakachilik holati, kapitalistik munosabatlarning mahalliy aholi boshiga bitmas-tuganmas fojialarni solishi najot faqat ilmida ekanligini tushunib yetishga sabab bo'ldi. Mazkur bobda jadidchilik ijtimoiy taraqqiyotda umumiylik kategoriyasi, milliy ozodlik harakatida alohidalik bilan, ma'rifatparvarlik evolyutsion yo'li esa xususiylik tamoyilida quyidagicha ilmiy xulosalangan:

birinchidan, jamiyat rivojida "Jadidchilik harakati"ning jahon siyosiy taraqqiyot tamaddunining tarkibiy qismi, falsafiy tafakkur taraqqiyotining o'lka hayotidagi ijtimoiy-siyosiy voqelikni anglash jarayoni, ozodlik uchun milliy birlikka intilish siyosiy harakatining nazariy va amaliy dasturida ma'rifat va ma'naviyatga najot yo'li sifatidagi strategiya ishlab chiqilgan edi;

ikkinchidan, jadidlik ijtimoiy, ma'rifiy, nazariy va amaliy rivojni yangi bosqichga olib chiqish vazifasini uddaladi. Natijada, an'anaviy ta'limga yangi innovatsion yondashuv asosida diniylik va dunyoviylikni jamiyat hayotiga uyg'unlashtirdilar. Zamonaviy ta'lim aniq fanlarning yoshlar tomonidan egallanishi bilan ijtimoiy hayotning murakkab muammolariga yechim topish, o'g'il bolalar bilan birga qizlarning ham savodxonligiga erishish tufayli ijtimoiy turmush tarzida novatsion yondashuvni olg'a surishni maqsad qilgan edi. Ular talantli va iqtidorli yoshlarni aniqlab, rivojlangan davlatlarda ta'lim olishga yo'naltiruvchi jamg'armalar tashkili bilan chin ma'noda ma'rifatparvarlik missiyasini amalga oshirdilar;

uchinchidan, jadidlik o'z mohiyatiga ko'ra, jamiyatda o'zgarish uchun targ'ibot va tashviqot vositasi – matbaaga urg'u berib, murakkab vaziyatda gazeta va jurnallarni bosish, mahalliy aholini dunyo tamadduniga ma'naviy bog'lash bilan falsafiy yangi dunyoqarashni shakllantirdi. Bu hol jamiyatda ziyolilarning siyosiy tafakkurini o'stirish bilan birga yangi avlod milliy-ozodlik taraqqiyoti bosqichiga asos soldilar;

to'rtinchidan, "jadidchilik harakati"ning chor hukumati uchun jiddiy siyosiy kuchga aylanishida bir qator omillarni ham e'tiborga olish darkor. Jumladan, a) mahalliy aholining urf, odat, an'ana, milliy va diniy qadriyatlarini ma'rifiy rivojlantirish tamoyilining to'g'ri belgilab olingani; b) jamiyatdagi vaziyatni to'g'ri tushunib, o'zlarining nazariy va amaliy faoliyatlarida siyosiy maqsadlardan ko'ra

¹² Жадид маърифатпарвар ҳаракатининг ғоявий асослари / мас.мух. Б. Хасанов. –Тошкент: ТХИУ, 2016. –Б.3

¹³ Қаҳҳор Т. Хур Туркистон учун // Туркистон. -1992. -26 феврал.

¹⁴ Мустақиллик: Изоҳли илмий- оммабоп луғат. -Тошкент: Шарк. 2014.. -Б. 104.

ma'rifatni ko'tarishga bo'lgan e'tiborni qarata bilganliklari kabilar muhim rol o'ynagan;

beshinchidan, "Jadidchilik" adabiyot va san'at muhim o'rin tutib ma'rifatparvarlik maqsadlarining amaliy jihatlarini ifodalagan, jamiyatda aholining badiiy-estetik qarashlarida sifat o'zgarishlarini yasagan. Xalqning zulm va zo'ravonlik, mustamlaka azobidan xalos bo'lishida strategik yo'nalish – jamiyatning modernizatsiyasi jahon sivilizatsiyasidan o'zining munosib o'rnini egallashi bilan birga ijtimoiy davlatchilik shakllanishida nazariy va amaliy tayanch bazasi bo'lib qoldi.

Bizningcha, jadidchilik harakatining mintaqaviy falsafiy merosi quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi: 1. Jadidchilik harakati Turkistonda, ijtimoiy taraqqiyot falsafiy g'oyalari Farg'ona vodiysida tarixiylik va mantiqiylik nuqtayi nazaridan kam o'rganilgan, ilmiy muomalaga kiritilgan jadidchilik ma'rifatining manbalari ijtimoiy falsafa doirasida tadqiq etilmagani aniqlandi. Shu ma'noda Farg'ona vodiysi jadidchilik harakatining jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni, mahalliy aholining mustamlaka zulmi ostida ezilishi chor hukumatiga qarshi ijtimoiy-siyosiy harakat hisoblanadi;

2. Jahon mustamlakachilik siyosatining inqirozi xalq ommasining, milliy-ozodlik kurashining avj olishi, ayniqsa, islomiy jamiyatda xalqlar milliy istiqloq kurashining rivojlanishi zamonaviy falsafaning muhim jihatidir. Mazkur global jarayon ilg'or g'oya va qarashlarga ehtiyojni jahon tamadduniga jadidlar tomonidan ijtimoiy uyg'unlashuvi bilan yuz berdi. Jadid harakatini jahon xalqlari milliy ozodlik harakatining tarkibiy qismi, Osiyocha ma'rifat, ilm-fan uyg'unishining ijtimoiy namoyishi, deb hisoblash mumkin;

3. Jadid harakati taraqqiyotini jamiyat hayotida zo'ravonlik va adolatsizlikka qarshi xalq manfaatlarini, orzu-intilishlarini himoya qilish, o'zbek ziyolilarining ijtimoiy-g'oyaviy hamkorligini kuchaytirish, xalqni oyoqlantirish, ozodlik missiyasi tufayli ijtimoiy davlat nazariyasi va amaliyotiga tomon kurashning alohida davri, deb hisoblash darkor.

Jamiyat rivojida jadidchilik faoliyati davlat, jamiyat va shaxs munosabatlarining ilg'or davlatlar tajribasi asosida transformatsiyasida yoshlarning madaniy darajasi hal etishini tushungan. Jamiyatning barcha tarmoqlarini yangilash, keng qamrovli islohotlar tashabbusi harakatning vujudga kelishi, tarixiy jarayonda musulmon va turkiy xalqlarning siyosiy Uyg'unishiga ijtimoiy zamin rolini o'ynadi. Chor Rossiyasi o'lkani zabt etib, o'z siyosiy boshqaruv tizimini o'rnatishi tufayli mazkur harakat o'sha paytdagi ijtimoiy norozilik namoyishi hisoblanadi. Shu ma'noda falsafiy tahlillar jamiyatda jadidchilik harakatining o'ziga xos va alohida jihatlari ajratib ko'rsatish mumkinligini tasdiqladi: a) paxtachilik siyosati tufayli qishloq xo'jaligining barbod bo'lishi, mahalliy dehqon yer egalarining inqirozi; b) rus sanoat mahsulotlarining o'lkaga kirib kelishi oqibatida ijtimoiy hayotda an'anaviy hunarmandchilikning nochorlashuvi; c) soliq siyosatining jamiyatda aholini xonavayron qilishi; d) o'lkada moliya va iqtisod tizimining to'la ruslarga xizmat qilishi; e) mahalliy aholining ijtimoiy erkinligi va tengsizligi; f) o'lka aholisining siyosiy qaram va huquqsizlikda ushlab turilishi; g), milliy va diniy qadriyat, urf-odat, an'analarning oyoqosti qilib tahqirlanishi, ijtimoiy munosabatning og'ir milliy-siyosiy, iqtisodiy oqibatlari tufayli yuzaga keldi.

Jamiyatda zulmning og‘ir shakliga qarshi jadid taraqqiyparvarlari ulkan maqsadlar bilan jamiyatning barcha bo‘g‘inlarida islohotlar olib borishni ko‘zlagan edilar. Buning zahirida doimo xalqning ozodligi, mustaqilligi, jamiyat va o‘lka xalqlarining farovon va erkin hayot tarzini yuzaga keltirish uchun fidokorona kurash olib borishgan. Ular keng xalq ommasini milliy ozodlik g‘oyalari bilan ilhomlantirib, ijtimoiy o‘z-o‘zini anglash darajasiga ko‘tara oldi.

Shuningdek, chorizmga qarshi kurashda jamiyatning evolyutsion rivoji, ya‘ni qurol kuchidan, zo‘rlikdan voz kechishi – ma‘rifatli mustaqillik harakati – ijobiy hodisa edi. Boshqaruvning politsiya va harbiylar kuchiga qarshi kurashda ilg‘or fikrli jadidlar siyosiy o‘zgarishlar uchun ma‘rifatni chuqur o‘zlashtirib, xalqning siyosiy saviyasini shakllantirish, jamiyatning orzu intilishlarini hisobga olib, milliy mustaqillikda siyosiy madaniyatni shakllantirishga alohida e‘tibor qaratganlar. Turkiston mustamlaka sharoitining siyosiy o‘zgarishi uchun taraqqiyparvar ziyolilar ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma‘rifiy targ‘ibotda propagandistik yo‘l rivojlanishidan evolyutsion (tadrijiy-propagandistik) yo‘lni tanlagan.

Farg‘ona jadidchiligi reytingi o‘lkadagi yetuk alloma va mutaffakkirlarning o‘zbek xalqining boy ma‘naviy-madaniy merosi, ilm-fan, texnika yangiliklariga ishtiyoqi baland bo‘lishi bilan birga o‘lka aholisining diniy va dunyoviy dualistik tafakkurini uyg‘unlashtirish salohiyati bilan belgilanadi. Ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy taraqqiyot kontekstida Is‘hoqxon to‘ra Ibrat ijodining falsafiy tahlili ham ishlab chiqildi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Jamiyat taraqqiyotini ta‘minlashda jadidlar ma‘rifatining o‘rni va ahamiyati”** deb nomlanib, unda jadidlar ijtimoiy-madaniy taraqqiyot kontekstida jamiyatning islohotchilari sifatida namoyon bo‘lib, islohotni ijtimoiy maorif, san‘atning milliy madaniy taraqqiyotiga asos qilib olganlar. Chunki, jadid harakatining asosiy maqsadi jamiyatni mustamlaka zulmidan ozod etish va milliy ijtimoiy davlatni qurish, yangi taraqqiyot va rivojlanish bosqichiga o‘tish edi. Zero Turkiston jamiyatining taraqqiyoti bevosita jahon madaniyati ilg‘or yutuqlarini milliy turmushga tatbiq etish, bashariyat sivilizatsiyasi bilan hamqadam bo‘lish bilan belgilangan. Ijtimoiy-madaniy taraqqiyotda Farg‘ona vodiysi Is‘hoqxon to‘ra Ibratning ijtimoiy-falsafiy qarashlari misolida yoritilgan. Zero u ilk bora jamiyatni madaniy fenomen sifatida dunyoning 12 poytaxt shaharlari bilan urbanizatsion qiyosiy tahlil etgan, shaharlar taraqqiyotiga oid muhim jihat va xususiyatlarni belgilagan. Xususan, “madaniylar va ba‘daviylar”ning turmush tarzi asosida taraqqiyot va mustaqillikning muhim sababi ilm-fan va texnologiyalar, deb asoslagan. Ibratning vodiy jadidchilik merosida bugungi o‘zbek jamiyati taraqqiyotiga analogik mos muammolar qo‘yilgani, ya‘ni dunyo xalqlari bilan hamqadam bo‘lishda ilm-fan, madaniyatga erishish uchun xorijiy tillarni yaxshi egallash, ilg‘or texnologiyalarni egallash uchun o‘qish va yana o‘qish zarurat ekanligi ta‘kidlangan.

“Madaniyat” atamasini “madina” ma‘nosida Is‘hoqxon to‘ra Ibrat fenomenal dunyoviy jihatdan Yevropa va Osiyo xalqlarining erishgan yutuqlari, turmush farovonligi, milliy birlik va umumiy farovonlik omili sifatidagi yondashuvi orqali falsafiy asoslab bergan. Natijada, ma‘rifat yangiliklar, innovatsion tamoyil va dasturlarning takliflari bilan millatni balog‘at ila o‘z taqdirini o‘zi belgilash uchun o‘zganing yordamiga muhtoj bo‘lmaslik degan “kantcha” xulosaga ham kelolgan.

Bizningcha, jahon ijtimoiy-siyosiy ilm-fan yutuqlari jamiyat taraqqiysida madaniyatlar integratsiyasi uchun ijtimoiy o'sish yoki innovatsiyalarni o'zlashtirish hisoblanadi. Shu bois Ibrat o'z asarlarida ustuvor g'oya – jamiyatni jahon andozalari darajasiga olib chiqishni ilm-fan yo'li deb korsatdi. Shu bilan birga, uning ijtimoiy ozodlik ma'rifati va madaniy qarashlarini shartli ravishda ikki bosqichga bo'lish mumkin. Bu sho'rolar tuzumigacha bo'lgan va undan keyingi madaniy-ma'rifiy islohotlar davridir. Chunki bu ikki davrning ham umumiylik va xususiylik jihatlari bo'lib, ilm-fan, ta'lim va tarbiya orqali madaniy yuksalishga erishishda jadidlarning shaxsiy tashabbuskorligi umumiy an'anadir. Jamiyat taraqqiyotini ta'minlash ta'limning institutsional tizimlarini rivojlantirish jadidlarning "ijtimoiy davlat" tamoyillaridagi ijtimoiy tenglik, madaniy taraqqiyot, ijtimoiy kapital kategoriyalariga bog'liq bo'lib, bu yoshlarda demokratik islohotlarga aksiologik munosabatni shakllantiradi.

Is'hoqxon to'ra Ibratning faoliyati taraqqiyparvarlik (mazkur atama ma'rifatparvarlikka sinonimi-diss.) harakatini ijtimoiy falsafaning tadqiqot predmeti sifatida belgilaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "...Ulug' ajdodimiz Ibrat taxallusini bejiz tanlamagan. Uning Vatan va yurt ravnaqi yo'lidagi fidokorona hayoti ... barchamiz uchun haqiqiy ibrat namunasi bo'lib xizmat qiladi, desam yanglishmayman", deya alloma ilmiy merosining tadqiqini dasturiy asos qilib olgan. Is'hoqxon to'ra Ibrat millatning madaniy taraqqiyotini xalqning tarixi bilan dialektik aloqadorlikda tushunib, o'z yurtining yirik madaniyat markazi – poytaxt shahri Axsikentni madaniy jamiyatning milliylik ildizi sifatida qabul qilgan. Bilaks, Z.M.Boburning "Boburnoma"sida ham vodiyning madaniyat va ma'rifat markazi bo'lgani "Aksi madaniyati" milliy tarixiy madaniyat degan g'oyani olg'a suradi.

Tadqiqotda allomaning madaniyatni tilshunoslik ilmi bilan bog'lagan holda yaratgan milliy ziyolilar o'zligi va dunyoviyligiga oid asarlarida yoshlarning xorijiy tillarni o'rganishiga oid olti tillik manba yaratib, millatning ma'naviy mulki – jadid madaniyatiga qo'shgan hissasi ochib berilgan. U madaniyatni insoniyat erishgan ilm-fan, texnologiyalar yig'indisi sifatida Yevropa va Osiyoning yirik shaharlaridagi ijtimoiy-madaniy hayot "sivilizatsiya va ba'daviylik" turmushi deya qiyoslagan. Urbanizatsiyaning jamiyatning barcha ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy imkoniyatlarini bir makonda jamlab, inson omilini shakllantirishi anglab yetilgan. Alloma ensiklopedik tafakkurga ega shaxs bo'lib, zamonaviy jamiyatning milliy-diniy qoloqlikdan chiqishi uchun ilm-fanga najot sifatida murojaat qiladi. U jamiyatshunos bo'lib, aholini diniy mutaassiblikdan sog'lom dindorlik tomon chorlagan, maktab ta'limi madaniy bazasining ilmiy tahlillarini o'tkazgan. Shu ma'noda uning ma'rifati chor hukumati va mahalliy diniy mudarrislarining ta'qibida bo'lganligini kuzatish mumkin.

Is'hoqxon to'ra Ibrat madaniyat nazariyasi va amaliyotining xalq ijtimoiy farovonligi, yoshlarning madaniy-ma'naviy barkamolligi, Vatan ravnaqi g'oyasida targ'ib etilishi o'lka ma'rifatida asosiy xususiy holat hisoblanadi. Ibratning qarashlari o'zining gumanizmi bilan jamiyatning islohi, xususiy jihati bilan Turkiston jadid harakatining umumiyligini takomillashtiradi. Mazkur harakat tizimida urbanizatsiya ijtimoiy taraqqiyot ko'rsatkichi sifatida yangi davr "shaharsozlik-modern" modeli bilan falsafa tarixining yangi sahifasidir. Bilaks,

zamonaviy ijtimoiy fanlardagi urbanizatsiyaning muammolari jadid ilmida ilk bora yoritildi.

U jamiyat rivojida milliy-siyosiy kurashni faollashtirish uchun turli uyushmalar tuzib, mahalliy xalq manfaatlarini himoya qilgan bo'lsa, keyingi harakatlarini siyosiy jarayonlarga chuqur e'tibor berishga qaratgan. Chor Rossiyasining zo'ravonlik siyosatiga qarshi kurash, milliy mustaqillik, demokratiya, davlatchilik nazariyasida yorqin iz qoldirgan harakat jadidchilikdir. Chunki xalqlarning milliy ozodlik uchun kurashi, ularning ruhiy holatini jadidchilik harakati namoyandalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Jamiyatda jadidchilikning butun jahon siyosiy o'zgarishlari bilan uyg'un holda tahlili amalga oshirilgan.

Jadidlar harakati ijtimoiy institutiga aholi o'rtasida siyosiy, madaniy, ma'naviy g'oyalarning tarqalishi va dunyoqarashining o'zgarishi bilan ozodlik kurashining propagandistik yo'nalishi sifatida qaralgan. Ularning maqsadi o'lka aholisining bilimi, ma'naviyati, milliy-siyosiy qarashlari shakllanishi uchun kurash, siyosiy ongini shakllantirish uchun o'lka hayotiga yangi islohotlarni olib kelish edi. Harakatni dunyoviy islohotlar bilan bog'liq rivojlantirish ilmiy yangilik edi. Jadid namoyandalari chorizmning o'lkada olib borayotgan zo'ravonlik siyosatiga qarshi kurashda ilm-fan ahamiyati, ilmiy dunyoqarash, hayotiy tajriba bilan tarbiyaga falsafiy yondashgan edilar. Tadqiqotimizda jadidchilik ta'limotining islohiy muammosi nafaqat nazariy jihatdan, balki jamiyat uchun amaliy zarurligi jihatidan asoslagan, falsafiy merosga yangicha yondashuv amalga oshirilgan.

